Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 811.512.133'37+821.512.133.09-1
ORCID: 0009-0009-2548-5570

ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA ANTONIMIYA XUSUSIYATLARI

Muminova Umida Qarshiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti, f.f.f.d
E-mail: muminovaumida842@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada antonimlik so'zlarning semantik munosabatlari va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlil etiladi. Antonimiyaning mohiyati, mantiqiy markaz prinsipi va oraliq tushunchalar orqali antonimlarning aniqlanishi masalasi yoritiladi. Shuningdek, monosemem va polisemem leksemalar o'rtasidagi zidlanish hodisasi ham ko'rib chiqilib, leksik-sememik antonimlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari antonimiyaning til tizimidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari maqolada "Mahbub ul-qulub" asarida uchraydigan antonimiya hodisasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yodgorlik tilida antonimlarning shakllanishi va rivojlanishida turkiy hamda o'zlashma qatlamlarning o'rni katta bo'lgan. Asardagi zid ma'noli birliklar turkiy, arabcha va forsiy so'zlar asosida shakllangan bo'lib, ular leksik antonimiya doirasida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida asarning leksik tarkibidagi antonimik juftliklar narsa-predmet nomlari, belgi-xususiyatlar, harakat-holat hamda faoliyatga oid so'zlar doirasida ajratib o'rganildi. Turkiy so'zlar orasida "bek – qul", "oq – qara", "bar – yo'q", "ol- – ber" kabi antonimlar kuzatilgan bo'lsa, o'zlashma qatlamga oid "ālim – jāhil", "jannat – dozax", "bātin – zāhir" kabi juftliklar mavjud. Shuningdek, arabcha va forsiy leksik qatlamning o'zaro zid ma'noli birliklari ham aniqlandi. Metodologik jihatdan tadqiqot leksik-semantik tahlilga asoslangan bo'lib, antonimik birliklarning kelib chiqishi, struktura va semantik xususiyatlari o'rganildi. Ushbu natijalar tarixiy leksikologiya va semasiologiya doirasida olib boriladigan izlanishlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: antonimiya, turkiy tillar, arabcha so'zlar, forsiy so'zlar, leksik antonimlar, semantik munosabat, zid ma'nolar, "Mahbub ul-qulub", o'zlashma qatlam, tilshunoslik, antonimik juftliklar, leksik tizim.

FEATURES OF ANTONYMY IN ALISHER NAVOI'S "MAHBUB UL-QULUB"

Abstract. This article analyzes the semantic relations of antonymous words and their lexical-semantic properties. The essence of antonymy, the principle of the logical center and the issue of determining antonyms through intermediate concepts are discussed. The phenomenon of conflict between monosememic and polysememic lexemes is also considered, and the formation of lexical-sememic antonyms is analyzed. The results of the study serve to determine the place of antonymy in the language system. In addition, the article analyzes the phenomenon of antonymy in the work "Mahbub ul-qulub". According to the results of the study, the Turkic and assimilation layers played a significant role in the formation and development of antonyms in the monument language. The units with contradictory meanings in the work were formed on the basis of Turkic, Arabic and Persian words, which were analyzed within the framework of lexical antonymy. During the study, the antonymic pairs in the lexical structure of the work were studied separately within the framework of

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

words related to things-objects, signs-characteristics, actions-states and activities. Among the Turkic words, antonyms such as "bek - kul", "aq - qara", "bar - yo'k", "ol- - ber-" were observed, while there are pairs such as "ālim - jāhil", "jannat - dozah", "bātin - zāhir" belonging to the assimilation layer. Also, units with contradictory meanings of the Arabic and Persian lexical layers were identified. Methodologically, the study is based on lexical-semantic analysis, studying the origin, structure, and semantic properties of antonymic units. These results serve as an important scientific basis for research conducted within the framework of historical lexicology and semasiology.

Keywords: antonymy, Turkic languages, Arabic words, Persian words, lexical antonyms, semantic relationship, opposite meanings, "Mahbub ul-qulub", assimilation layer, linguistics, antonymic pairs, lexical system**.**

Особенности антонимии в произведении Алишера Навои «Махбуб уль-Кулуб»

Абстрактный. В данной статье анализируются семантические отношения слов-антонимов и их лексико-семантические свойства. Обсуждаются сущность антонимии, принцип логического центра и вопрос определения антонимов через промежуточные понятия. Также рассматривается феномен конфликта между однозначными и многозначными лексемами, анализируется образование лексико-семемических антонимов. Результаты исследования служат для определения места антонимии в языковой системе. Кроме того, в статье анализируется явление антонимии в «Махбуб уль-Кулуб». Согласно результатам исследования, тюркский и туземный слои сыграли значительную роль в формировании и развитии антонимов в мемориальном языке. Противоположные смысловые единицы в работе образованы на основе турецких, арабских и персидских слов и анализируются в рамках лексической антонимии. В ходе исследования антонимические пары в лексическом составе произведения изучались отдельно в рамках названий предметов, признаков, характеристик, слов-действий-состояний и деятельностных слов. Среди турецких слов наблюдаются такие антонимы, как «бек — раб», «ак — кара», «бар — нет», «ол-бер-», а также встречаются пары притяжательного слоя — «алим — джахил», «жаннат — дозах», «батин — захир». Также были выявлены взаимопротиворечивые единицы арабского и персидского лексических пластов. Методологически исследование основано на лексико-семантическом анализе, изучены происхождение, структура и семантические свойства антонимических единиц. Эти результаты служат важной научной основой для исследований, проводимых в рамках исторической лексикологии и семасиологии.

Ключевые слова: антонимия, турецкие языки, арабские слова, персидские слова, лексические антонимы, семантическая связь, противоположные значения, «Махбуб уль-Кулуб», акцептивный слой, лингвистика, антонимические пары, лексическая система.

KIRISH. Antonimlik so'zlardagi ma'no zidligini aks ettiradigan tushuncha bo'lgani uchun u bir so'z orqali yoki ko'p so'z yordamida berilishidan qat'iy nazar, baribir, antonim deb qaralishi kerak [1]. Shu bilan birga, antonim ekanligini aniqlashda mantiqiy markaz prinsipidan – faraz qilingan nuqta yoki ikki antonim so'z bildirgan tushunchalar o'rtasidagi oraliq tushunchalardan foydalanish lozim [2]. Antonimlar bir so'z turkumiga mansub bo'ladi. Antonimiya – o'zaro zid ma'noli so'zlarning semantik munosabati. Monosemem yoki polisemem leksemalarning bosh sememalari bilan boshqa bir polisemem leksemalarning sememalari (bosh sememadan tashqari) o'rtasida hosil bo'ladigan zidlanish leksik-sememik antonimlarni voqelantiradi. Leksik-grammatik va turkumlik semasi bir xil

bo‘lgan leksema va sememaning zidlanishidan leksik-sememik antonimlar hosil bo‘lishi kuzatiladi [3].

Demak, antonimiya hodisasi ham leksik paradigma va sinonim leksemalar guruhida, ya’ni sinonimiya hodisasida bo‘lgani kabi leksemalarning ma’no munosabati orqali yuz beradi. Shu xususiyati bilan o‘zaro zid ma’noli leksemalardan tuzilgan juftliklar ham leksik sistemani tashkil etadi. Ikkita asosiy belgisi bilan boshqa tipdagi leksik-semantik guruhlardan farqlanadi: 1) ikki komponentdan tuziladi; 2) komponentlari o‘zaro zidlik munosabatida bo‘ladi·[4]. Anglashiladiki, antonim so‘zlarni belgilashda asosiy mezon – leksik ma’no, ya’ni so‘zlarning zid ma’nolarni bildirishidir. Kezi kelganda aytish kerakki, polisemantik leksema bir ma’nosi bilan muayyan so‘zga, ikkinchi ma’nosi bilan boshqa so‘zga antonim bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, antonimlar, nafaqat so‘zlarning ilk semasini ochib beradi, shuningdek, ularning ko‘p ma’noda qo‘llanishiga oydinlik kiritishga yordam beradi. Bundan tashqari, zid ma’noli leksemalar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini qiyoslashda, ayni paytda, fikrlarimiz, his-tuyg‘ularimizni ta’sirchan, aniq ifodalashga ko‘maklashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida qayd etilgan antonimiya hodisasini turkiy va o‘zlashma istilohlar vujudga keltirgan. Bu esa zid ma’noli qatorlarning kengayishini ta’minlagan. Olib borgan tadqiqotimiz asosida shu narsa oydinlashdiki, yodgorlikda istifoda qilingan leksik birliklar tizimida zid ma’nolar bir hamda ikki o‘zakli so‘zlar yordamida ifodalangan bo‘lib, turkiy va o‘zlashma: arabcha, forsiy qatlamlardan tashkil topgan. Quyida keltirilayotgan antonimik juftliklar buning yorqin dalilidir.

1. Turkiy so‘zlar antonimiyasi: leksik antonimlar. Leksema(semema)larning o‘zaro zid munosabatdagi ma’nolarni anglatishi asosida guruhlanishi leksik antonimiya deyiladi.[5] Qissada qo‘llanilgan leksik antonimlar asosan ot, sifat, ravish va fe’l turkumlariga oid so‘zlardan iborat:

1) narsa-predmet nomini anglatuvchi so‘zlar antonimiyasi: bek “bek” – qul “qul”; kün “kunduz” – tün “qorong‘i”; xatun “ayol” – er “erkak”; ata “ota” – ana “ona”; yaruğ – qaranğu; kündüz kunduz” – aqšam “oqshom”; qïz “qiz” – oğul “o‘g‘il”; ölük “o‘lik” – tirik “tirik”; yer “yer” – kök “osmon”; čečäk “gul” – tikän “tikon”; baš “bosh” – ayağ “oyoq”; ot “olov” – suv “suv”; oŋ “o‘ng” – sol “chap”;

2) belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar antonimiyasi: qarï “keksa, chol” – yaš “yosh”; ač “och” – toq “to‘q”; ast “past’’ – ust “tepa”; yaqïn “yaqin” – yïraq “uzoq”; savuq “sovuq” – ïssïq “issiq”; biyik, uluğ “ulug‘, katta” – kičik “kichik”; oq – qara; ağïrlïq “og‘irlik” – yeŋillik “yengillik”; čïn “rost” – yalğan “yolg‘on”; yaxšï “yaxshi” – yaman “yomon”; yumšaq “yumshoq” – qatïğ “qattiq”; ačïğ “achchiq”– süčük “chuchuk”;

3) holatni bildiruvchi so‘zlar antonimiyasi: bar “bor” – yoq “yo‘q”; öksük “oz” – köp “ko‘p”;

4) harakat va faoliyat bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi leksemalar antonimiyasi: bar- “bormoq” – kel- “kelmoq”; art- “ortmoq” – tüšür- “tushurmoq”; ayrïl- “ayrilmoq” – qošul- “qo‘shilmoq”; qur- “qurmoq” – buz- “buzmoq”; kir- “kirmoq” – čïq- “chiqmoq”; al- “olmoq” – ber- “bermoq”; sač- “sochmoq” – ter- “termoq”; tur- “turmoq” – yat- “yotmoq”; tök- “to‘kmoq” – sal- “solmoq”; ač- “ochmoq” – yap- “yopmoq”;

2. Turkiy va arabcha so‘zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: asïğ “foyda” – zarar “ziyon”; kičik “kichik” – kabira “katta”; yašurun “yashirin” – zāhir “ayon”.

3.Turkiy va forsiy so‘zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: köp “ko‘p” – kam “oz”; dädäk “joriya” – banda “qul”; qoldaš “do‘st” – dušman; az “kam” – bisyār “ko‘p”; ko‘p – kam; tün “tun” – roz “kunduz”.

4. Arabcha so‘zlar antonimiyasi:

a) leksik antonimlar: ājiz "kuchsiz" – qaviy "kuchli"; ālim "olim, bilimli kishi" – jāhil "nodon, bilimsiz"; bāqiy "mangu" – fāniy "vaqtincha"; bātin "yashirin" – zāhir "ayon"; halāl "halol" – harām "harom"; musulmān "musulmon" – kāfir "kofir"; avval "ilk" – āxir "oxir, so'ng"; fāyida "foyda" – ziyān "ziyon"; xasis – saxiy.

5. Arabcha va forsiy so'zlar antonomiyasi:

leksik antonimlar: habib "do'st" – dušman "yov"; asir "tutqun" – āzād "hur"; jāhil "nodon" – dānā "oqil"; jannat "uchmoh" – dozax "jahannam"; batïn "yashirin" – āškār "ochiq-oydin".

6. Forsiy so'zlar antonimiyasi:

leksik antonimlar: bihišt "jannat" – dozax "do'zax"; dost (52r17) "do'st" – dušman "dushman"; šāgird "shogird" – ustād "ustoz"; xāja "xo'jayin" – banda "qul".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Tilshunoslikda antonimiya hodisasi turli tillarning leksik qatlamida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning shakllanishida turkiy va o'zlashma so'zlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot doirasida "Mahbub ul-qulub" asarida uchraydigan antonimik munosabatlar tahlil qilinib, ularning leksik-semantik va strukturaviy jihatlari o'rganildi.

Adabiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, asarda antonimiya hodisasi turli o'zbek va o'zlashma qatlamlardan tarkib topgan. Xususan, turkiy, arab va forsiy tillardan kirib kelgan so'zlarning o'zaro zid munosabatlari leksik antonimiya shaklida namoyon bo'lgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, antonimlar semantik jihatdan narsa-predmet nomlari, belgi-xususiyatlar, holatlar hamda harakat va faoliyatni bildiruvchi so'zlar orasida shakllangan. Turkiy qatlamda antonimiya asosiy so'z turkumlari – ot, sifat, fe'l va ravish doirasida kuzatiladi. Masalan, bek – qul, oq – qara, bar – yo'q, al- – ber- kabi juftliklar ushbu hodisaga yaqqol misol bo'la oladi.

Metodologik jihatdan olib borilgan tadqiqot asosan leksik-semantik tahlilga asoslangan. U orqali antonimik munosabatlarning kelib chiqishi, ularning tarkibiy tuzilishi va semantik xususiyatlari aniqlab berildi. Shuningdek, korpus lingvistikasi usullaridan foydalangan holda antonimlarning yodgorlik matnidagi taqsimoti ham tahlil qilindi. Strukturaviy yondashuv orqali antonimlar sintaktik va semantik jihatdan o'rganilib, ularning qaysi leksik qatlamlar orqali shakllangani belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, "Mahbub ul-qulub" yodgorligidagi antonimiya hodisasi asosan turkiy va o'zlashma so'zlar uyg'unligidan tashkil topgan bo'lib, bu esa leksik tizimda antonimik qatorlarning kengayishiga zamin yaratgan. Ushbu tadqiqot kelgusida tarixiy leksikologiya va semasiologiya sohalarida qo'shimcha izlanishlar olib borish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Mahbub ul-qulub" asarida antonimiya hodisasi turkiy va o'zlashma qatlamlardan tashkil topgani aniqlandi. Asardagi antonimik juftliklar tizimining shakllanishida turkiy, arabcha va forsiy tillarning o'zaro ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning mavjudligi asar tilining boyligi va ko'p qatlamli leksik tizimga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, asarda antonimlar quyidagi asosiy guruhlarga ajraladi:

Turkiy so'zlar antonimiyasi – bu guruh asosan ot, sifat, fe'l va ravish so'z turkumlariga oid antonimlardan iborat. Masalan, *bek – qul, qarï – yaš, bar – yoq, kir- – čïq-* kabi juftliklar asar tilida aktiv qo'llangan.

Turkiy va arabcha so'zlar antonimiyasi – bu qatlam asosan arab tilidan o'zlashgan ilmiy, diniy va ma'naviy tushunchalarni o'z ichiga oladi. *Asïğ – zarar, kičik – kabira* kabi antonimlar mazkur qatlamning yorqin namunasidir.

Turkiy va forsiy so‘zlar antonimiyasi – turkiy va forsiy tillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan antonimik juftliklar qatoriga *köp – kam, dädäk – banda, tün – roz* kabi so‘zlar kiradi. Bu esa asarda forsiy qatlamning mavjudligini ko‘rsatadi.

Arabcha so‘zlar antonimiyasi – arab tilidan o‘zlashgan antonimik birliklar ko‘proq diniy, axloqiy va falsafiy tushunchalarni qamrab oladi. *Ājiz – qaviy, halāl – harām, avval – āxir* kabi antonimlar ushbu qatlamning o‘ziga xosligini namoyon qiladi.

Arabcha va forsiy so‘zlar antonimiyasi – arabcha va forsiy tillar ta’sirida shakllangan antonimik juftliklar asarda ko‘p uchraydi. *Habib – dušman, jāhil – dānā, jannat – dozax* kabi antonimlar ushbu qatlamga misol bo‘la oladi. Mazkur antonimik juftliklarning mavjudligi asar tilining boyligi va uslubiy rang-barangligini ko‘rsatadi. Ular muayyan ma’naviy, diniy va ijtimoiy tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynagan. “Mahbub ul-qulub” leksik tizimida antonimiya hodisasi keng qo‘llanilgan va turkiy, arabcha, forsiy qatlamlardan tashkil topgan. Asardagi antonimlar leksik jihatdan tizimlilikka ega bo‘lib, ot, sifat, ravish va fe’l turkumlari orqali ifodalangan. O‘zlashma so‘zlarning antonimik juftliklari asarning semantik boyligini oshirish bilan birga, turli madaniy qatlamlarning o‘zaro ta’sirini ham aks ettirgan. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, antonimiyaning bunday keng qamrovli qo‘llanilishi asarning mazmunan yuksakligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Kelgusida ushbu antonimik tizimni yanada chuqurroq o‘rganish va boshqa turkiy asarlardagi antonimlar bilan taqqoslash orqali tilshunoslik nuqtayi nazaridan yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Mahbub ul-qulub” asarida antonimiya hodisasi keng qo‘llangan bo‘lib, bu leksik qatlamning shakllanishida turkiy, arabcha va forsiy tillarning o‘zaro ta’siri sezilarli darajada namoyon bo‘lgan. Asarda antonimlar nafaqat til boyligini oshirish, balki ma’naviy, diniy va ijtimoiy tushunchalarni ifodalashda ham muhim rol o‘ynagan.

Asardagi antonimik juftliklar quyidagi xususiyatlarga ega:

Tarkibiy jihatdan – ot, sifat, ravish va fe’l turkumlarida uchraydi.

Kelib chiqishi bo‘yicha – turkiy, arabcha va forsiy qatlamlardan tashkil topgan.

Semantik xususiyatiga ko‘ra – ma’naviy, diniy, ijtimoiy va kundalik hayotga oid tushunchalarni ifodalagan. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, “Mahbub ul-qulub” dagi antonimlar tizimlilikka ega bo‘lib, asarning mazmuniy va uslubiy jihatdan yuksakligini ta’minlashga xizmat qilgan. Kelgusida ushbu leksik hodisani boshqa turkiy yozma yodgorliklar bilan qiyosiy o‘rganish orqali tilshunoslikka oid yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Усмонов С. Антонимлар//Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. -Т.: 1958. №2. –Б. 35.

2.Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи,1980. -Б. 9.

3.Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. – Тошкент: Qaqnus Media, 2019. – Б. 88.

4.Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.: ФАН, 2010. -Б.131.

5.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 121.

УДК: 37-1174